

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
BIYLIGI**

2023 - yil 23 - avgust

179-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining 2023-yil 27-iyul kungi 04/453-sonli, O'zbekiston Sudyalari Assotsiatsiyasining 01-49/23-sonli xatlariga muvofiq, Xalqaro Yuristlar Ittifoqining tadbirlar rejasiga ko'ra, joriy yilning 21-24 sentyabr kunlari Armaniston Respublikasining Yerevan shahrida Yerevan davlat universiteti yuridik fakultetining 90 yilligiga bag'ishlangan "Huquqiy xavfsizlikning zamonaviy muammolari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya o'tkazilishida ishtirok etuvchi, Kengash a'zosi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi raisi Aytneyazov Paraxat Aytneyazovichni konferentsiyada ishtiroki uchun transport va mehmonxona xarajatlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 11-avgustdagi SI/12-02/3262-sonli xatini inobatga olib:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (R.Sultanov) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi raisi Aytneyazov Paraxat Aytneyazovichni konferentsiyada ishtiroki bo'yicha transport va mehmonxona xarajatlari uchun sarflanadigan 23 mln. 620 ming so'm (yigirma uch million olti yuz yigirma ming) so'm pul mablag'ini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zahira jamg'armasi hisobidan Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasiga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratish choralarini ko'rib chiqsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasi (A.Ismailov) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi (P.Aytneyazov) bilan birgalikda ajratilgan mablag'larning qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarda va tartibda, maqsadga muvofiq sarflanishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasidagi boshqarmasi (B.Utambetov)dan ajratilgan mablag'ning qonunchilikda o'rnatilgan asoslarda va tartibda, maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish so'ralsin.

4. Mazkur farmoyishning qonunchilikka muvofiq bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Kengashi Raisining birinchi o‘rinbosari N.Erlepesov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov